



KICHIK VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI

Aslonov Nasillo Jabborovich
Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda mamlakatimizning iqtisodiy jihatdan o‘sishi uchun muhim omillardan bo‘lib xizmat qilayotgan kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari haqida tahlillar olib borilgan.

Kalit so‘zlar: Marketing, raqobat, ish o‘rni, reklama, foyda, rentabellik, strategiya, mexanizm, kichik biznes va tadbirkorlik, bank, bank xizmatlari, kreditlar, imtiyozli kreditlar,

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Tadbirkorlik faoliyatini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko‘plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil (Biznes-ombudsman) lavozimi joriy qilindi. Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko‘maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi faoliyati yo‘lga qo‘yilib, unga 200 milliard so‘m va 50 million dollar mablag‘ ajratildi.

Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi. Bunday amaliy choralar o‘z natijasini bermoqda. Kichik biznes mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining qariyb 60 foizini, sanoat mahsulotlari hajmining uchdan birini, qishloq xo‘jaligi mahsulotining 98 foizini, investitsiyalarning yarmini ta‘minlamoqda. Ko‘pgina viloyatlarda eksportning 70-90 foizi aynan kichik biznesga to‘g‘ri keladi. Yig‘ilishda ushbu ko‘rsatkichlar islohotlarning dastlabki natijalari ekani ta‘kidlanib, asosiy e‘tibor hanuzgacha uchrayotgan muammolarni hal etishga qaratildi.

Davlatimiz rahbari viloyat, tuman, shahar hokimlari va ularning birinchi o‘rinbosarlari mutlaqo yangicha ishlab, 70 foiz vaqtini hududda tadbirkorlikni rivojlantirishga sarflashi kerakligini ta‘kidladi. Har bir viloyat, tuman va shahar hokimlari va ularning birinchi o‘rinbosarlari faoliyatiga yangi tashkil etilgan yoki faoliyati qayta tiklangan kichik korxonalar va ularda yaratilgan ish o‘rinlari sonidan kelib chiqqan holda baho berib, rag‘batlantirish bo‘yicha yangi tizim joriy etish vazifasi qo‘yildi.

Baho berishda korxonalarining yashovchanlik ko‘rsatkichi asosiy mezonlardan biri bo‘lishi kerakligi belgilandi. Ya‘ni, tashkil etilayotgan korxonalarining kamida 50 foizi keyingi 3 yil davomida ishlasa, hokim va uning tadbirkorlik bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, Savdo-sanoat palatasining hududiy bo‘limlari rahbarlarini qo‘shimcha moddiy rag‘batlantirish nazarda tutilmoqda.



Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar ustuvor mavqega ega bo'lib mamlakat iqtisodiyotining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlashda, aholi bandligini oshirish maqsadida yangi ish o'rinlarini yaratishda hamda pirovard natijada aholi turmush tarzi va daromadlarini oshirishda ularning roli juda yuqoridir.

Bugungi kunga kelib yurtimizda turli mulkchilik munosabatlarining shakllanishi, shu bilan birga xo'jalik yurituvchi subyektlar orasida mulkdorlarning o'rta sinfi shakllanishi, aholi ehtiyojlarini ta'minlash uchun ichki bozorni raqobatbardosh va sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish vazifalarining muhim omili sifatida yurtimiz taraqqiyoti yo'lidagi faol harakatlantiruvchi kuch sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish asosiy maqsadlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida soha vakillariga yaratilgan rag'batlantiruvchi omillar, imtiyoz va kreditlar ajratish ushbu sohaning O'zbekistondagi jadal taraqqiyotini belgilab bermoqda. O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlariga kreditdan foydalanishga qulay sharoitlar yaratilgan: tijorat banklari va ularning shaxobchalarining kengayishi, maxsus Mikrokreditbankning tashkil etilishi, mikrokreditlarning joriy etilishi va hokazo. Tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektoriga ajratilgan kreditlar tarkibida kichik biznesga berilgan kreditlarning ulushi yildan yilga ortib borayotgani kuzatilmoqda.

So'nggi o'n yil mobaynida soha subyektlariga tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar hajmi 21 barobarga, mikrokreditlar hajmi esa 42 barobarga o'sdi va tadbirkorlarning kreditlardan foydalanish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi. Birgina 2015-yilning to'qqiz oyi daomida tijorat banklari tomonidan xususiy tadbirkorlik subyektlariga 9.6 trillion so'mdan ortiq yoki 2014-yilning shu choragiga nisbatan 1.3 marta ko'p kreditlar ajratildi.

Shuningdek, mamlakatimizda kichik tadbirkorlik faoliyatining turli shakllarini rivojlantirish va ularni qo'llab-quvvatlashga ham e'tibor berilmoqda. Ya'ni oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik, ayol tadbirkor hamda kollej bitiruvchilarining tadbirkorlik faoliyatlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmi takomillashmoqda. Tijorat banklari tomonidan esa ularga imtiyozli shart va kreditlar ajratilmoqda. Xususan, 2015-yilning 11 oyi davomida tijorat banklari tomonidan ayol tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashga 1.2 trln. so'mdan ziyod kredit resurslari ajratildi.

Ta'kidlash joizki, ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar Jahon bankining "Doing Business" hisobotida O'zbekiston Respublikasi reytingiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, mustaqillik yillarida Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan hamda izchil olib borilayotgan puxta o'ylangan, samarali iqtisodiy siyosat pirovardida mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiyotning mutanosibligini ta'minlash uchun mustahkam zamin yaratdi. Bu esa iqtisodiyotimizni barqaror sur'atlar



bilan rivojlantirishning davom ettirilishiga, aholi turmush darajasini izchil yuksaltirishning ta'minlanishiga, mamlakatimizning dunyo bozoridagi o'z pozitsiyasini mustahkamlashiga asos bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boltayeva S.B. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy samaradorligi
2. Hamroyev H. Tadbirkorlik asoslari-T.: "Yangi nashr", 2010. B.308.
3. Bozor, pul va kredit №11, 2014 -T. Madaliyev "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda banklarning o'rni". B.14.
4. Iqtisodiyot va ta'lim №4, 2013 -X. Sultonova "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi shart-sharoitlari, tamoyillari va xususiyatlari". B.86.

